

## **I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

Mazkur fan dasturi bakalavriat: 5112000 – Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, "Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya bo'yicha miyoriy hujjatlarni yuritirish" fanida O'zbekiston Respo'blikasida jismoniy tarbiya tizimining rivojlanishi uning tarixiy qonuniyatlari, vositalari metodlari, o'rgatish bosqichlari, jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish usullari haqida nazariy va amaliy ta'lim berishni ta'minlovchi sohani o'rganish fani bo'lib hisoblanadi. Jismoniy tarbiya amaliyotida ulardan foydalanish masalalariga muhim o'rin berilgan. Shu bilan birga O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonuni qabul qilinishi, O'zbekistonda futbol, kurash, tennis, sport turlarini rivojlantirish haqida Prezident farmonlari, o'zbek xotin-qizlarining jismoniy tarbiya haqida mulohazalari, jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot qilish, mahalliy millat aholisi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni tashviqot qilishga ilk bor urinishlar, "Navro'z", "Hosil bayrami", "Alpomish", "To'maris" o'yinlarini o'tkazish va unga rahbarlik qilishda ahamiyati kattadir jismoniy madaniyat va sport bo'yicha to'liq bilim beradi. Insonning sog'lom baquvvat bo'lib rivojlanishlariga va ularni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga o'rgatadi. O'quvchilarni jismoniy sifatlarni tarbiyalash va takomillashtirishni o'rgatishga ko'maklashadi. Shuningdek, ularning nazariy bilim, amaliy harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishning nazariy asoslarini o'rgatadi. Shu munosabati bilan davlatimiz tomonidan chiqarilgan jismoniy madaniyat va sport bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi**

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak kadrlarga jahon halqlarining jismoniy tarbiya va sport tarixi hamda shu sohada erishilgan natijalar to'g'risida ma'lumot berish, mamlakatimizda jismoniy tarbiyaning rivojlanishi va uning taraqqiy etish hamda sportni boshqarish yo'llari haqida bilim berish, ommaviy jismoniy tarbiya harakatida ijtimoiy va davlat idoralari o'rnini anglatish. O'z-o'zini boshqaruv muassasalari va davlat idoralari boshqaruv hujjatlar bilan ishlashga o'rgatish, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. Kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo'yicha kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish kabi bilimlar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.

Fanning vazifasi – bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilariga jahon xalqlarining umumiy madaniyatida jismoniy tarbiya va sportning o'rni. Ibtidoiy jamoa tuzumida jismoniy mashqlarni paydo bo'lishi. Jismoniy madaniyat va sportni rivojlanish davrlari. O'rta asrlarda jismoniy madaniyat va sport. Buyuk gumanistlar ta'limoti, O'rta Osiyoga jismoniy tarbiyani kirib kelishi. Ajdodlarimiz Abu Ali ibn Sino, A.Temur davrlarida jismoniy tarbiya. Sportni boshqaruv

tamoyillari, anʻanaviy va milliy bayramlarda musobaqalar tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport boʻyicha qaror, buyruqlarning sport tashkilotlarida bajarilishi boʻyicha bilim berish hamda oʻrgatish, taʼlim muassasalari maktabgacha taʼlim muassasalari, umumtaʼlim maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollej oʻquvchilarini jismoniy madaniyat mashgʻulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish hamda sport musobaqalari, sport bayramlarini tashkil qilish va oʻtkazish hamda sinfdan tashqari toʻgaraklarni tashkil qilish kabi bilimlarini shakllanishini oʻrganishga koʻmaklashadi.

Fan boʻyicha talabalarning bilim, koʻnikma va malakasiga quyidagi talablar qoʻyiladi. **Talaba:**

*Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish boʻyicha*

-jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari, Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish tizimlari, Oʻzbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Davlat qoʻmitasi, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda ishtirok etuvchi davlat idoralari, Oʻzbekiston Respublikasi milliy olimpiya qoʻmitasi, sport maktablari va markazlari faoliyatini tashkil qilish, aholi turar-joylarida ommaviy sogʻlomlashtirish va xalq milliy oʻyinlarini tashkil qilish, boshqarining ijtimoiy-psixologik va pedagogik yoʻnalishlari, boshqarishning huquqiy asoslari, boshqarishning jamoat tashkilotlari, xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport ishlarini boshqarish **haqida bilimlarga ega boʻlishi kerak.**

- aholi turar joylarda ommaviy sogʻlomlashtirish va milliy oʻyinlarni tashkil qilish; bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida jismoniy tarbiya va sportning oʻrni; jismoniy tarbiya – sport menedjmentini moliyaviy, tashkiliy va huquqiy asoslari; havaskor va professional sport; jismoniy tarbiya, sogʻlomlashtirish va sport ishlari, ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va oʻtkazish; Oʻzbekistonning halqaro sport aloqalari **haqida malakalarga ega boʻlishi kerak.**

*Jismoniy madaniyat tarixi boʻyicha*

- jismoniy madaniyat tarixi fanining maqsadi hamda vazifalari; qadimgi dunyo halqlarining jismoniy tarbiyasi; qadimgi yunoniston, rim va rusda jismoniy tarbiya; oʻrta asrlarda jismoniy tarbiya; buyuk gumanistlar taʼlimoti **haqida bilimlarga ega boʻlishi kerak.**

- Yangi va eng yangi davrlarda chet mamlakatlarda jismoniy tarbiya; Amur Temur, Abu Ali Ibn Sino, Zaxriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi yashagan davrlarda jismoniy tarbiya; markaziy Osiyoga jismoniy tarbiyaning rivojlanishi **haqida koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.**

- halqaro sport harakatining rivojlanishi va halqaro olimpiya qoʻmitasining tashkil topishi; milliy olimpiya qoʻmitasining tashkil topishi; Oʻzbekiston sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya oʻyinlaridagi ishtiroki; Oʻzbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sportning rivojlanishi **haqida malakalarga ega boʻlishi kerak.**

*Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi boʻyicha:*

- Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari; jismoniy madaniyat tarixi fanining maqsadi hamda vazifalari; qadimgi dunyo halqlarining jismoniy tarbiyasi; qadimgi yunoniston, rim va rusda jismoniy

tarbiya; oʻrta asrlarda jismoniy tarbiya; buyuk gumanistlar taʼlimoti Oʻzbekiston Respublikasidagi jismoniy tarbiya tizimining umumiy tavsifi; Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy madaniyat va sport boʻyicha qabul qilgan hujjatlarining ahamiyati; jismoniy madaniyatning jamiyatdagi vazifalari va shakllari; jismoniy tarbiya nazariyasi boʻyicha olib borilayotgan tadqiqot uslubiyotlari; jismoniy tarbiya vositalari; jismoniy tarbiya va jismoniy mashqlar texnikasini tavsifi **haqida bilimlarga ega boʻlishi kerak.**

- Yangi va eng yangi davrlarda chet mamlakatlarda jismoniy tarbiya; Amur Temur, Abu Ali Ibn Sino, Zaxriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi yashagan davrlarda jismoniy tarbiya; markaziy Osiyoga jismoniy tarbiyaning rivojlanishi jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari; jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida qoʻllaniladigan jismoniy tarbiya metodlari; harakatlarni va jismoniy sifatlarni tarbiyalashdagi qatʼiy tartiblashtirilgan mashq uslubi; harakatlarga oʻrgatish jarayonini asoslari; harakatlarga oʻrgatish bosqichlarining tuzilish asoslari; oʻrgatish bosqichlarining asosiy yoʻnalishi va xususiyati; harakat malakalarining tashkil etish qonuniyatlari; mehnatni ratsional tashkil etishda jismoniy tarbiyani ahamiyati; ishlab chiqarishda kasbiy amaliy tayyorgarlik; maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi; umumiy oʻrta taʼlim tizimida jismoniy tarbiyani oʻrni va ahamiyati; taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va oʻtkazish usullari; jismoniy tarbiya darslarida oʻquvchilar faoliyatini tashkil etish usullari; sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlariga tavsif; oʻquv ishlarini rejalashtirish; jismoniy tarbiya darslarida pedagogik nazorat: pedagogik tahlil, xronometraj, pulsometriya oʻtkazish uslubiyoti **haqida koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.**

- akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida jismoniy tarbiya; sportning nazariy asoslari; sport musobaqalari tizimi; sport trenirovkasining vositalari va metodlari; sport trenirovkasining tamoyillari (printsiplari); jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik) tarbiyalash metodikasi; musobaqa faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari; sportchini tayyorlash tizimi; sportchining jismoniy texnik va taktik tayyorgarligi; sportchilarni tayyorlashda yuklamaga umumiy tavsif; sport formasi taraqqiyotining qonuniyatlari **haqida malakalarga ega boʻlishi kerak.**

*Sport bayramlarini tashkil qilish va oʻtkazish metodikasi boʻyicha:*

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanining maqsadi hamda vazifalari; jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari; oʻz-oʻzini boshqaruv tashkilotlarida jismoniy madaniyatni tashkil etish tizimlari; Oʻzbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Davlat qoʻmitasi **haqida bilimlarga ega boʻlishi kerak.**

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda ishtirok etuvchi davlat idoralari; boshqarishning jamoat tashkilotlari; Oʻzbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qoʻmitasi; sport maktablari va markazlari faoliyatini tashkil qilishni **haqida koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.**

- aholi turar joylarda ommaviy sogʻlomlashtirish va milliy oʻyinlarni tashkil qilish; bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida jismoniy tarbiya va sportning oʻrni; jismoniy tarbiya – sport menedjmentini moliyaviy, tashkiliy va huquqiy asoslari;

havaskor va professional sport; jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va sport ishlari, ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish; O'zbekistonning halqaro sport aloqalari **haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.**

sport bayramlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi - pedagogik fan sifatida; sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazishning maqsadi, vazifalari, ahamiyati; sport va sog'lomlashtirish tadbirlari (bayramlari) ni o'tkazish qonun-qoidalari **haqida bilimga ega bo'lishi kerak.**

- sport va sog'lomlashtirish tadbirlarining shakllari; bolalar musobaqalarini tashkil etish; maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan musobaqalarni tashkil qilish turlari, bosqichlari; umumta'lim maktablarida sport va sog'lomlashtirish tadbirlari asoslarini **haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.**

- akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda sport - sog'lomlashtirish tadbirlari; aholi turar joylarda ommaviy sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va o'qitish metodikasi; ulug' sanalariga bag'ishlangan sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish; sport bayramlarida harakatli o'yinlarning o'rni; sport va sog'lomlashtirish tadbirlariga tayyorlashda pedagogning roli **haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.**

### **Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- yosh bosqichlarga qarab o'quv ishlarini rejalashtira olish;
- shu yosh bosqichlariga qarab jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkaza olishi;
- pedagogik nazorat, xronometraj, pulsometriyani dars jarayonida olib borish;
- sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya shakllarini bilish va ularni farqlay olish;
- sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish;
- sinfdan yoki guruxdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya shakllarini rejalashtirish;
- jismoniy tarbiya bo'yicha jamoaning tuzilishi, xususiyati, ahamiyatini bilish;
- sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish;
- sport trenirovkasining umumiy xarakteristikasi, vositalari va metodlari;
- sport trenirovkasining prinsiplari;
- sport to'garaklari bo'lajak yosh sportchilarni saralash xaqida aniq tasavvurga ega bo'lishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda nazariy va amaliy bilimlarga *ega bilishi kerak;*

**Ko'nikma** – talabalar Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanidan bolalar yosh bosqichlariga qarab jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkaza olishi, pedagogik nazorat, xronometraj, pulsometriyani dars jarayonida olib borish, sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya shakllarini bilish va ularni farqlay olish, sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish, sinfda,

sinfdan yoki guruxdan tashqari olib boriladigan jismoniy madaniyat shakllarini rejalashtirish, *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;*

**Malaka** - talabalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkaza olish, pedagogik nazorat, xronometraj, pulsometriyani dars jarayonida olib borish, sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya shakllarini bilish va ularni farqlay olish, sport musabaqalarini tashkil qilish va o'tkazish, sinfda, sinfdan yoki guruxdan tashqari olib boriladigan jismoniy madaniyat shakllarini rejalashtirish, sport to'garaklariga bo'lajak yosh sportchilarni saralash xaqida aniq tasavvurga ega bo'lishi bo'yicha nazariy va amaliy harakat malakalariga, bulardan amaliy muammolarni yechishda foydalana olish hamda aftomatizm shakliga keltirish *malakalariga ega bo'lishi kerak;*

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma- ketligi**

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya bo'yicha miyoriy hujjatlarni yuritish fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Bu fanni o'rganish uchun talaba avvalgi kurslarda olingan jismoniy madaniyat bo'yicha to'la hajmda bilimi bo'lishi kerak.

Bundan tashqari jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kursida uchraydigan atamalar hamda jismoniy madaniyat sifatlarini, metodlarni, prinsiplarni, mazmunini, jismoniy mashqlar fizologiyasi va biomexanikasi, umumiy psixologiya, gimnastika va uni o'qitish metodikasi, harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi, jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish, suzish va uni o'qitish metodikasi, sport psixologiyasi, turizm va uni o'qitish metodikasi kabi fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Shu jumladan jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fani fundamental va boshqaruvchi fan bo'lib, nomlari zikr etilgan fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlikni talab etadi. xisoblanadi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya bo'yicha miyoriy hujjatlarni yuritish fani boshqaruvchi fan bo'lib, bo'lajak jismoniy madaniyat bo'yicha kadr mutaxassislariga jismoniy madaniyat va sport bo'yicha to'liq bilim beradi. Insonning sog'lom baquvvat bilimdon bo'lib rivojlanishiga o'rgatadi, jismoniy sifatlarini tarbiyalashga, takomillashtirishga ko'maklashadi, shuningdek, ularning bilimi harakat ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Shu munosabati bilan jismoniy madaniyat va sport bo'yicha chiqarilgan davlat derektiv xujjatlarga javob berishida yetakchi rol o'ynaydi.

### **Fanning o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning “Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya bo’yicha miyoriy hujjatlarni yuritish” fanni o’zlashtirishlari uchun o’qitishning ilg’or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi innovasion – pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muxim ahamiyatga ega. O’qitishdagi yangi texnologiyalar “Klaster”, “Bumerang”, “Zanjir”, “Agarda men” metodlaridan hamda jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kursida plakatlardan, tarqatma materiallardan, har xil jadvallardan va ko’rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Ma’ruza va amaliy darslariga mos ravishdagi ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

### **Asosiy qism**

#### **Fanning nazariy(ma’ruza, amaliy) mashg’ulotlar mazmuni**

1. Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya bo’yicha miyoriy hujjatlarni yuritish fanining maqsad va vazifalari
2. Ta’lim muasasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlarining mazmuni va mohiyati va ular uchun yuritiladigan miyoriy huquqiy hujjatlar
3. Dars konispekti va unga qo’yilgan pedagogik talablar
4. Ta’lim muasasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlarining rejalashtirishda tabiatning sog’lomlashtiruvchi kuchlari va tabiiy omillar
5. Ta’lim muasasalarida jismoniy tarbiya va sport ishlari bo’yicha rahbar xodimlar tomonidan yuritiladigan miyoriy hujjatlar
6. Ta’lim muasasalarida jismoniy tarbiya va sport instrukturlari tomonidan yuritiladigan miyoriy huquqiy hujjatlar
7. Sport tadbirlari va ularning miyoriy huquqiy hujjatlarini yuritish

#### **Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

“Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya bo’yicha miyoriy hujjatlarni yuritish” bo’yicha talaba mustaqil ta’limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha fan boblari va mavzularini o’rganish;
- tarqatma materiallar ma’ruzalar qismini o’zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo’yicha mavzular ustida ishlash;
- talabanning o’quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog’liq bo’lgan fanlar bo’limlari va mavzularini chuqur o’rganish;
- faol va muammoli o’qitish uslubidan foydalaniladigan o’quv mashg’ulotlari;
- masofaviy ta’lim.

#### **Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari;**

Boshlang’ich va yuqori sinflarda darslaridan tashqari mashg’ulotlar majmuini tuzish. Sport va sog’lomlashtirish kunlari uchun dastur ishlab chiqish, Musobaqalar uchun nizomlar ishlab chiqish o’yin taqvimini, tadbir senariylarini tuzish.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun ta’lim muasasalarida tashkillashtiriladigan

musobaqa turlari va ularning maqsad va vazifalari. Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya bo'yicha meyoriy hujjatlarni yuritish fanining maqsad va vazifalari

Ta'lim muasasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining mazmuni va mohiyati va ular uchun yuritiladigan meyoriy huquqiy hujjatlar

Dars konispekti va unga qo'yilgan pedagogic talablar

Ta'lim muasasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining rejalashtirishda tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va tabiiy omillar

Maktab sport bayramlarib va ularni tayyorlash rejasi va unga senariy yozish metodikasi

Jismoniy tarbiya va sport kunlarini uyushtirish va o'tkazish

Jismoniy tarbiya va sport kunlarini tashkillashda meyoriy hujjatlar

Ta'lim muasasalarida jismoniy tarbiya va sport ishlari bo'yicha rahbar xodimlar tomonidan yuritiladigan meyoriy huquqiy hujjatlar

Ta'lim muasasalarida jismoniy tarbiya va sport instrukturalari tomonidan yuritiladigan meyoriy hujjatlar

Sport tadbirlari va ularning meyoriy huquqiy hujjatlarni yuritilishi

Musobaqa tayyorlash va o'tkazish. Musobaqa nizomi va uning dasturini yozish metodikasi

### **Kurs ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

Talaba kurs ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakl va usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

- kurs ishlarining tarkibiy tuzilishi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir ya'ni titul varag'i, reja, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi;

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini mukammal o'rganish;

- mashqlar chizmasini chizish va mashq variantlarini ishlab chiqish hamda amaliy mashg'ulotlarda foydalanish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;

- talabanning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

Tavsiya etiladigan kurs ishlarning mavzularidan namunalar:

1. O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiyaning rivojlanishi.

2. Jismoniy madaniyat ijtimoiy tizim sifatida tutgan o'rni va uning ahamiyati.

3. Jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish usullari.

4. Jismoniy tarbiyaning metodik printsiplarini mashg'ulot jarayonida tutgan o'rni.

5. Jismoniy tarbiyaning metodlarini amalga oshirish yo'llari va usullari.  
**VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. A.Abdullayev. Sh. Xonkkeldiyev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasin.Toshkent.2005y
2. Liviskiy A.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi.T.1995.
3. R.S.Salomov. Jismoniy madaniyat nazariy asoslari.T. 2005 yil
4. R.A.Qosimov, B.T.Haydarov.Jismoniy madaniyat harakatining nazariy asoslari.Samarqand,2009
5. R.S.Salomov Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati.T.2014y
6. Матвеев Л.Р. Теория и методика физического воспитание – Учебник Москва «Физкультура и спорт» – 2005 г.
7. David C. Watt Sports management and administration © 1998 David C. Watt

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasida qabul qilingan qonun, farmon va qarorlar
2. Y.Masharipov Sport psixologiyasi . O'quv qo'llanma . O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2010 5- bet
3. Goncharova. Y.O. Yosh sportchilarning jismoniy qobililiyatlarini rivojlantirish Toshkent.,O'Zdjti, 2005yil 171 bet
4. Thomas H. Sawyer, Lawrence W. Judge The Management of fitness, Physikal Activity, Recreation, and Sport © 2012 Sagamore Publishing LLC All ringhts reserved.
5. Sport gazetalari

#### **Internet saytlari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
6. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)